

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,**  
**CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**CHORVACHILIK XO'JALIKLARIDA NASLCHILIK TADBIRLARINI**  
**O'TKAZISHNING ILMIY ASOSLARI**

**FANNING O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
<b>Ta'lim sohasi:</b>	810000	- Qishloq xo'jaligi
<b>Mutaxassisligi:</b>	70810802	- Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik

**Samarqand 2024**

Fan/modul kodi CHNTO'IA 2306		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni  Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda chorvachilikda takroriy ishlab chiqarish qobiliyati, chorvachilikka ixtisoslashgan turli xo'jaliklarda podani tarkibiy qismi, erkak va urg'ochi hayvonlarning jinsiy hamda jismoniy balog'at yoshi, naslli hayvonlardan samarali foydalanish yo'llari, bo'g'oz hayvonlarni tug'ishga tayyorlash va to'g'dirish, pushtsizlik hamda qisir qolishga qarshi kurashishdagi zootexnikaviy tadbirlar, hayvonlarni pushtdorligini oshirish bo'yicha mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdan iborat.  Fanning vazifasi - talabalarda fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida chorva hayvonlar podasini tashkil qilish, ularni zootexnikaviy me'yor asosida saqlash va oziqlantirish, sut va go'shti ishlab chiqarishning tabiatan qulay, iqtisodiy samarali yo'llarini topish, shu o'rinda podani takror ishlab chiqarishni zootexnikaviy asoslari haqida ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.  <b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b> <b>1-mavzu. Kirish</b> Fanning predmeti va bilish usullari. Chorvachilikda takroriy ishlab chiqarishning ilmiy va amaliy asoslari faninig ahamiyati, xalq xo'jaligidagi o'rnini. Fanning vazifalari. Fanni o'zlashtirishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati. Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi kabilarni o'z ichiga oladi.  <b>2-mavzu. Qoramolchilikda naslchilik tadbirlarini o'tkazish</b> Podani takror ishlab chiqarish. Qoramollarning naslchilik tadbirlarini o'tkazish va ishlab chiqarish xususiyatlari. Turlicha ixtisoslashgan xo'jaliklarda poda				

Qoramollarning jinsiy balogʻat yoshi. Tana va buqalardan podani takror ishlab chiqarishda dastlab foydalanish muddatlariga boʻlgan talablar. Podani takror ishlab chiqarishda qoramollardan foydalanish davomiyligi.

**3-mavzu. Sut yoʻnalishidagi qoramolchilikda takroriy ishlab chiqarishga boʻlgan talablar**

Podani tashkil etish. Podaning tarkibi, sut yoʻnalishidagi qoramolchilikda podani tarkibi. Podani takror ishlab chiqarishda sigirlarda foydalanish davomiyligi. Sigirlarni puchakka chiqarish (viranjirovka) talablari.

**4-mavzu. Goʻsht yoʻnalishidagi qoramolchilikda takroriy ishlab chiqarishga boʻlgan talablar**

Goʻsht yoʻnalishidagi qoramolchilikda podani tarkibiy qismiga boʻlgan talablar. Podani ishlab chiqarish. Podani tashkil etish. Podaning tarkibi. Podani takror ishlab chiqarishda boʻrdoqilash davomiyligi. Boʻrdoqilash usullari.

**5-mavzu. Xoʻjaliklarda takroriy ishlab chiqarish uchun sigir va tanalarni qochirish usullari**

Qochirish usullari, sigirlarni tuqqandan soʻng urugʻlantirish muddatlari va uni ahamiyati. Sigirlarning boʻgʻozlik davri. Qoramollarni suʻniy urugʻlantirish. Suʻniy urugʻlantirish usullari. Sunʻiy urugʻlantirishning afzalliklari. Jinsiy sikl. Sigir va tanalarning kuyga kelish muddatlari va uni uygʻunlashtirish choralari. Qochirish vaqti va takror vaqti.

**6-mavzu. Chorvachilikda takroriy ishlab chiqarishda buzoqlarni oʻstirish va parvarishlash**

Sogʻlom buzoq olishning zootexnikaviy asoslari. Pushtsizlik va qisirlikka qarshi kurash choralari. Buzoqlarni parvarishlash. Buzoqlarni profilaktoriya davri. Sut ichish davrida oʻstirishni tashkil etish. Buzoqlarni saqlash usullari. Buzoqlarni maqsadli yoʻnalishda oʻstirishning nazariy asoslari.

**7-mavzu. Qoʻychilikda takroriy ishlab chiqarishning asosiy koʻrsatkichlari**

Podani takror ishlab chiqarish. Qoʻychilikda takror ishlab chiqarish xususiyatlari. Qoʻylarning jinsiy fiziologik balogʻat yoshi. Sovliq va qoʻchqorlardan podani takror ishlab chiqarishda foydalanish muddatlariga boʻlgan talablar. Podani takror ishlab chiqarishda qoʻylardan foydalanish davomiyligi.

**8-mavzu. Turlicha ixtisoslashgan qoʻychilik xoʻjaliklarida qoʻylarni urchitish texnikasi**



Qo'ychilikda tabiiy va sun'iy urug'lantirish. Iskab topar qo'chqorlar. Urug'lantirish usullari: erkin, guruhli, qo'lda, sun'iy yo'l bilan amalga oshirish. Ularning ahamiyati va samaradorligi.

**9-mavzu. Turli yo'nalishidagi echkichilikda takroriy ishlab chiqarish xususiyatlari**

Podani takror ishlab chiqarish. Echkichilikda takror ishlab chiqarish xususiyatlari. Echkilarning jinsiy fiziologik balog'at yoshi. Echkilardan podani takror ishlab chiqarishda foydalanish muddatlariga bo'lgan talablar. Podani takror ishlab chiqarishda echkilardan foydalanish davomiyligi.

**10-mavzu. Cho'chqachilikda takroriy ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari**

Cho'chqalarda birinchi qochirim davrining zootexnik va iqtisodiy jihatlarining asoslanishi. Cho'chqalardan foydalanishning istiqbolli shartlari. Poda tuzilishi. Tugallangan va tugallanmagan cho'chqachilik xo'jaliklarida takroriy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

**11-mavzu. Podani to'ldirishda yosh cho'chqalarni o'stirish texnologiyasi**

Yosh cho'chqalarni yetishtirish xususiyatlari. Podani to'ldirishda yosh cho'chqalarni parvarishlashga qo'yiladigan talablar. Yosh cho'chqalarni sanoat usulida saqlash texnologiyasi: bir fazali, ikki fazali, uch fazali saqlash usullari. Ularning bir-bridan farqi va foydalanish samaradorligi.

**12-mavzu. Yilqichilikda uyurni takroriy ishlab chiqarish xususiyatlari**

Naslli otlar uchun uyur aylanmasi. Uyur tarkibi. Kalendar davr uchun uyurdagi otlarning takroriy ishlab chiqarish uchun yosh guruhlari dinamikasi. Hisobot davri mobaynida uyur aylanmasi.

**13-mavzu. Bo'g'oz biyalarning uyurni takroriy ishlab chiqarishdagi fiziologik xususiyatlari**

Birinchi qochirimdagi fiziologik yosh. Bo'g'ozlik davridagi biyalarning fiziologik holati. Biyalardan egiz tug'ilish ehtimoli. Homila abortiga sabab bo'ladigan omillar va ularni oldini olish shartlari.

**14-mavzu. Chorvachilikda takroriy ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar**

Qochirim yoshidagi urg'ochi hayvonlarni urug'lantirishi, ularga mos bo'lgan erkak hayvonlarni tanlash. Nuqsonli avlod olishdan himoyalash. Takror ishlab

chqarishda foydalaniladigan hayvonlarning genetik kelib chiqishini aniqlash. Kech urug'lantirishning takror ishlab chiqarishga ta'siri. Birinchi qochirimda hayvonlarning yoshi bilan birga uning tirik vazni va umumiy rivojlanishini hisobga olish. Reproduktiv organlarning kasalliklarini o'z vaqtida oldini olish.

**15-mavzu. Chorvachilikda takroriy ishlab chiqarishning asosiy tashkiliy va iqtisodiy rejasini tuzish**

Chorvachilikda takroriy ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlarini asoslash, maqsad va vazifalarni, farazlarni shakllantirish, tahlil qilish ob'yektlarini tanlash, dastur tuzish, omillarni to'plash va tadqiq qilish, nazariy umumlashtirish va tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha chora - tadbirlarni ishlab chiqish.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya yetiladi:**

1. Chorva hayvonlarini tamg'alash.
2. Chorva hayvonlarini yoshini aniqlash.
3. Turlicha ixtisoslashgan xo'jaliklarda poda tarkibi.
4. Chorva hayvonlarini bonitirovkalash.
5. Podani to'ldiradigan urg'ochi tanalarni o'stirishni rejalashtirish
6. Sut yo'nalishidagi qoramolchilikda podani tarkibi.
7. Sigirlarni puchakka chiqarish (viranjirovka) talablari.
8. Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda podani tarkibiy qismiga bo'lgan talablar.
9. Bo'rdoqilash usullari va oziqlantirish me'yorlari.
10. Sun'iy urug'lantirish usullari.
11. Jinsiy sikl va unga ta'sir etadigan omillardan foydalanish.
12. Pushtsizlik va qisirlikka oldini olish tadbirlari.
13. Buzoqlarni saqlashga zoogigiyenik talablar.
14. Takror ishlab chiqarishda foydalaniladigan buzoqlarni o'stirish.
15. Qo'ychilikda takror ishlab chiqarish xususiyatlari.
16. Podani takror ishlab chiqarishda naslli sovliq va qo'chqorlarni o'stirish.
17. Jun yo'nalishidagi qo'ylarni bonitirovka qilish.
18. Go'sht yo'nalishidagi qo'ylarni bonitirovka qilish.
19. Qorako'l qo'ylarni bonitirovka qilish.
20. Qo'ychilikda tabiiy va sun'iy urug'lantirish samaradorligi.
21. Echkichilikda takror ishlab chiqarish xususiyatlari.
22. Cho'chqa bolalarini sut davrida o'stirish qoidalari.
23. Yosh cho'chqalarni sanoat usulida saqlash texnologiyasi.
24. Cho'chqachilikda poda harakatini tuzish.

25. Uyurdagi otlarning takroriy ishlab chiqarish dinamikasi.
26. Bo'g'ozlik davridagi biyalarni parvarishlash.
27. Qochirim yoshidagi urg'ochi erkak hayvonlarni tanlash.
28. Reproduktsiya organlarining kasalliklarini o'z vaqtida oldini olish tadbirlari
29. Chorvachilikda takroriy ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlarini tahlil qilish ob'yektlarini tanlash
30. Nazariy umumlashtirish va tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob-uskunalar, preparatlar bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Podani takror ishlab chiqarishning ahamiyati.
2. Viranjirovka tadbiri.
3. Yosh qoramollarni maqsadga muvofiq parvarishlash tadbiri.
4. Podani takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
5. Yosh qoramollarni baholash.
6. Qoramollardan foydalanish muddatlari.
7. Sigirlarni podadan chiqishiga sabab bo'luvchi omillar.
8. Buqalarni podadan chiqarishga sabab bo'luvchi omillar.
9. Turli fermer xo'jaliklarida podani takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari
10. Reproduktsiya xo'jaliklarining vazifalari
11. Chorva hayvonlarini xo'jalik foydali belgilari
12. Podani tuzilishida hisobga olinadigan ko'rsatkichlar
13. Jinsiy balog'at yoshi va unga ta'sir qiluvchi omillar
14. Erkin qochirish usuli va uni ahamiyati
15. Qo'lda qochirish usuli va uni afzalliklari
16. Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish
17. Pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlash
18. Qoramolchilikda biotexnologik uslublar va uni samaradorligi
19. Jismoniy balog'at yoshiga ta'sir qiluvchi omillar
20. Sigirlarda uchraydigan jinsiy kasalliklar.
21. Qoramolchilikda mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan hujjatlar.
22. Podani to'ldiradigan urg'ochi tanalarni sonini aniqlash.
23. Naslli qoramollarning kartochkalarini rasmiylashtirish qoidalari.
24. Mahsulotni hisobga olishda foydalaniladigan hujjatlar.
25. Qoramollarni go'shtga topshirish va qabul qilishni tashkil etish.
26. Qoramollarning davlat naslchilik kitoblarini o'rganish.
27. Naslchilik ishlari rejasini tuzish.
28. Qoramol zotlarini o'rganish.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrasining mudiri dotsent J.N. Xujamov, q.x.f.f.d.(PhD) M.A. Nazarova tomonidan 70810802- Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik magistr mutaxassislari uchun tayyorlangan "Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari" fan dasturiga


#### T A Q R I Z

Chorva hayvonlarini tanlash, saralash ishlarini to'g'ri tashkil qilish va shu yo'l bilan ularning mahsuldorlik bo'yicha sifatini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish naslchilik ishi yordamida amalga oshiriladi. Tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilim va malaka darajasi jamiyat va davlat rivojlanishining zamonaviy talablariga mos kelishi kerak. "Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari" fanining o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ushbu fanning dasturi chorvachilikda hayvonning ko'paytirishni tahlili shakllanadigan poydevorni tashkil qiladi. Chorva hayvonlarini tanlash, saralash ishlarini to'g'ri tashkil qilish va shu yo'l bilan ularning mahsuldorlik bo'yicha ilmiy asoslash, chorvachilikda zotlarni to'g'ri tanlash, hayvonlarni baholash va juftlash, urchitish usullaridan to'g'ri foydalanish zarur. Yangi zotlar yaratishda, mavjud zotlarini tubdan yaxshilashda muhim o'rinni tutadi. Bu fan asosiy fan hisoblanib ishlab chiqarishning ajralmas bo'g'inidir.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan fan dasturi, zootexniya yo'nalishi uchun mavjud bo'lgan Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida, yuqorida ko'rsatilgan mutaxassislarning bo'yicha ta'lim olayotgan magistratlarga mo'ljallangan bo'lib, dastur: o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, o'quv fanning maqsadi va vazifasi, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati kabi bob va qismlarni o'z ichiga olgan hamda masalalar hozirgi zamon talabi darajasida yoritilgan. "Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari" fanining masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Umuman olganda taqriz qilinayotgan fan dasturi o'zining mazmun - mohiyati, yozilish tartibi, shakli va hajmi jihatidan qo'yilgan talabga to'liq javob beradi. Shuni hisobga olgan holda ushbu fan dasturini tasdiqlash uchun tavsiya qilish mumkin deb hisoblayman.

Samarqand agroinnovatsiyalar tadqiqotlar instituti  
"Oziq-ovqat xavfsizligi va texnologiyalar" kafedrasining professori, q.x.f.n



Sh.K.Amirov



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedra mudiri (PhD) J.N. Xujamov, (PhD) M.A. Nazarova tomonidan 70810802- Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik magistr mutaxassislari uchun tayyorlangan "Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari" fan dasturiga

#### T A Q R I Z

"Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari" fanining o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ushbu fanning dasturi chorvachilikda hayvonning ko'paytirishni tahlili shakllanadigan poydevorni tashkil qiladi. Chorva hayvonlarini tanlash, saralash ishlarini to'g'ri tashkil qilish va shu yo'l bilan ularning mahsuldorlik bo'yicha ilmiy asoslash, chorvachilikda zotlarni to'g'ri tanlash, hayvonlarni baholash va juftlash, urchitish usullaridan to'g'ri foydalanish zarur. Yangi zotlar yaratishda, mavjud zotlarini tubdan yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Bu fan asosiy fan hisoblanib ishlab chiqarishning ajralmas bo'g'inidir.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan fan dasturi, zootexniya yo'nalishi uchun mavjud bo'lgan Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida, yuqorida ko'rsatilgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan magistr'larga mo'ljallangan bo'lib, dastur: o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, o'quv fanning maqsadi va vazifasi, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati kabi bob va qismlarni o'z ichiga olgan hamda masalalar hozirgi zamon talabi darajasida yoritilgan. "Chorvachilik xo'jaliklarida naslchilik tadbirlarini o'tkazishning ilmiy asoslari" fanining masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Umuman olganda taqriz qilinayotgan fan dasturi o'zining mazmun - mohiyati, yozilish tartibi, shakli va hajmi jihatidan qo'yilgan talabga to'liq javob beradi. Shuni hisobga olgan holda ushbu fan dasturini tasdiqlash uchun tavsiya qilish mumkin deb hisoblayman.

Qorako'Ichilik va cho'l ekologiyasi  
ilmiy-tadqiqot instituti "Oziqlantirish  
va saqlash" bo'limi mudiri, qishloq  
xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent



B.S.Yaxyayev

29. Avlodlari bo'yicha baholangan buqalardan foydalanish.  
30. Bonitirovka asosida o'tkaziladigan tadbirlar

3.

#### VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

##### Talaba bilishi kerak:

- dunyoda va O'zbekistonda chorvachilikning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari, chorva hayvonlarining kelib chiqishi, biologik xususiyatlari, mahsuldorligi; O'zbekistonda urchitiladigan rejali zotlari; Respublika qoramolchiligidagi naslchilik ishi, tizimi, ahvoli, istiqbollari; Qoramolchilikda podani qayta tiklash xususiyatlari; Fermer, dehqon, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda sut ishlab chiqarish jarayonlari; Qoramol go'shti ishlab chiqarishning samarali, ekologik toza texnologiyalarni, xomilani ko'chirib o'tkazishdagi biotexnologik uslublari haqida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)**
- qoramollar anatomiyasi va fiziologiyasi; Qoramollarni jinsiy va jismoniy balog'at yoshi va ularga ta'sir qiluvchi omillar; Qoramollarning jinsiy sikli; turlicha ixtisoslashgan xo'jaliklarda podani tarkibi va xususiyatlari; Turli yo'nalishdagi xo'jaliklarda naslchilik ishlari; Yosh buzoqlarni o'stirish usullarini bilish, maqsadga muvofiq o'stirishni boshqarishni qo'llash; Podani to'ldirish uchun mo'ljallangan urg'ochi tana va g'unajinlarni o'stirish; Sigirlarni qochirish va urug'lantirish, qisir qolishga qarshi kurashish yo'llari; Sog'lom buzoq olish yo'llari; Sutni ko'paytirish usullarini qo'llash; Sut sog'ish usullari, uskunalar, sutga xo'jalikda dastlabki ishlov berishni samarali usullarini qo'llashni **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)**
- qoramollarni urchitish usullari, shakllarini bilgan holda, buqalarni urug'ini sifatini baholash, Turli mahsuldorlik yo'nalishidagi qoramol zotlarining xususiyatlarini farqlash; Buzoq va podani to'ldiruvchi nasldor yosh qoramollarni o'stirish; Qochirishni va urug'lantirishni tashkil etish, homilani ko'chirib o'tkazish, sigirlarni tug'dirish; Naslchilik rejasini tuzish; tana va sigirlarni qisir qolishdan asrash hamda pushsizligini oldini olish kabi **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)**

4.

#### VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.

#### VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. Maqsdov I., Jo'rayev J, Amirov Sh.Q. "Chorvachilik asoslari" "Zarafshon" nashriyoti DK, Samarqand, 2013.</p> <p>2. P.S.Sobirov, A.K.Kaxarov, S.D.Do'stqulov – Chorva mollarini urchitish. Toshkent. 2003.</p> <p>3. P.S.Sobirov, S.D.Do'stqulov – Genetika asoslari va chorva mollarini urchitish. Toshkent. 1989.</p> <p>4.S.D.Do'stqulov, A.K.Kaxarov, F.I.Isroilov – Chorva mollarini urchitish. Toshkent- 1993.</p> <p>Maqsdov I., Yunusov X.B., Amirov Sh.Q. "Chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarish saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" "Navro'z" nashriyoti, Toshkent, 2020.</p> <p>5.Абылкасымов Д., Абрампальская О.В., Воронина Е.А., Сударев Н.П. Современные проблемы зоотехнии. Учебное пособие. Тверь: Тверская ГСХА, 2020.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p> <p>9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>11. Желтиков А.И. Современные проблемы зоотехнии. Методические рекомендации. Новосибирск, 2017.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>10. <a href="http://www.Zivo.net">www.Zivo.net</a>.</p> <p>11. <a href="http://www.uralrti.ru">www.uralrti.ru</a>.</p> <p>12. <a href="http://www.twirpx.com">www.twirpx.com</a></p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2 -avgustdagi "12-sonli bayoni bilan maqullangan.
8.	<p style="text-align: center;"><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>Xujamov J.N.</b> - SamDVMCHBU, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrasini mudiri q.x.f.f.d., (PhD);</p>

	<p><b>Nazarova M.A.</b> - SamDVMCHBU, "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrasini katta o'qituvchisi, q.x.f.f.d. (PhD);</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Sh.K.Amirov</b> – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Oziq-ovqat xavfsizligi va texnologiyasi" kafedrasini professori, q.x.f.n.</p> <p><b>B.S.Yaxyayev</b> - Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, "Oziqlantirish va saqlash" bo'lim mudiri q.x.f.n, dotsent</p>